



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOYIY NATIJALARI	12
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN'YIY INTELLEKT VA PLATFORMA EKOTIZIMLARINING KORXONA INNOVATSIYALARIDAGI O'RNI	16
Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC DAMAGE OF ECOLOGICAL HAZARDS IN URBAN AREAS: CONCEPTUAL SHORTCOMINGS OF NON-MARKET VALUATION METHODS AND THE INTEGRAL DAMAGE FUNCTION APPROACH	20
Abbos Saydullaev	
Iqboloy Choriyorova	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOT IMKONIYATLARI	31
Ibragimova Rayxon Tojibayevna	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA "ZAYLANMA IQTISODIYOT (CIRCULAR ECONOMY)" MODELINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	36
Elnoraxon Muminova Abdukurimovna	
Sarvinov Mamatojiyeva Dilshodjon qizi	
TRANSPORT KORIDORLARINI BOSHQARISHDA LOGISTIKA MENEJMENTINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	42
Umarova Dilfuza Rahmatulla qizi	
ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВ ЦИФРОВИЗАЦИИ МИСЕ-СЕКТОРА В УЗБЕКИСТАНЕ	47
Harzullaeva Fariza Akmalевна	
ECONOMETRIC MODELING OF THE DYNAMICS OF RETAIL TRADE TURNOVER UNDER THE INFLUENCE OF REAL HOUSEHOLD INCOME USING A LOGARITHMIC FUNCTION	53
Gaybullayev Sarvar Uktam ugli	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING MAZMUN-MOHİYATI VA NAZARIY ASOSLARI	59
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
SPORT TAKOMILLASHUVI BOSQICHIDAGI FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATIDA INNOVATSION VOSITALARNING O'RNI	64
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyavich	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI VIZUAL MATERIALLAR VOSITASIDA O'RGATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	72
Olimova Shahlo Bahodir qizi	
Inomova Mahliyo Yusuf qizi	
INCREASING THE ATTRACTIVENESS OF DIVIDEND POLICY IN UZBEKISTAN COMPANIES	76
Akmal Komiljonovich Shermukhamedov	
XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	81
Musurmonqulov Muhammad Ural o'g'li	
TEMIR YO'L ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY MEXANIZMI	86
Baymatov Atxam Axmadaliyevich	



MENEJMENT NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI.....	92
Saidova Xilolaxon Rashidjon qizi	
OPPORTUNITIES FOR USING MARKETING STRATEGIES TO ENSURE THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF HOTEL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN	97
Sardor Kuvandikov	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОГРАММ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	106
Абдуллаева Зульфия Иззатовна	
NAMANGAN VILOYATINING HUDUDIYIQTISODIY TUZILMASI VA SHAHARLAR TIZIMINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.....	113
Ahmadjanov Ilyosbek Ilhomjon o'g'li	
JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEKANIZMI VA XALQARO TAJRIBALAR QIYOSIY TAHLILI	117
G'afforov Kamronbek	



JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMI VA XALQARO TAJRIBALAR QIYOSIY TAHLILI

G'AFFOROV Kamronbek
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti
E-mail: kamrontsue777@gmail.com
ORCID: 0009-0008-0015-7629

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish mexanizmining nazariy-metodologik asoslari, iqtisodiy mohiyati hamda uning zamonaviy soliq tizimidagi o'rni ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining amaldagi mexanizmi, uni hisoblash va undirish tartibi, soliq imtiyozlari hamda soliq ma'murchiligi amaliyoti tahlil qilingan. Shuningdek, AQSh, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi va ayrim Osiyo davlatlarida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy tahlil asosida o'rganilgan. Tadqiqot natijasida turli mamlakatlarda qo'llanilayotgan progressiv va proporsional soliqqa tortish modellari, soliq stavkalari hamda daromadlarni qayta taqsimlash mexanizmlarining samaradorligi baholangan. Olib borilgan tahlillar asosida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirish va xalqaro tajribaning ilg'or jihatlarini soliq amaliyotiga qo'llash yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy shaxslar daromad solig'i, soliqqa tortish mexanizmi, soliq ma'murchiligi, soliq siyosati, progressiv soliqqa tortish, proporsional soliqqa tortish, soliq imtiyozlari, xalqaro tajriba, qiyosiy tahlil, soliq tizimi, fiskal siyosat.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations of the personal income taxation mechanism, its economic essence, and its role in the modern tax system. The study analyzes the current mechanism of personal income taxation in the Republic of Uzbekistan, including the procedures for tax assessment and collection, tax incentives, and tax administration practices. Furthermore, the specific features of personal income taxation systems in the United States, Germany, the Russian Federation, and several Asian countries are examined through a comparative analysis. The research evaluates the effectiveness of progressive and proportional taxation models, tax rates, and income redistribution mechanisms implemented in different countries. Based on the findings, scientifically grounded proposals and recommendations are developed to improve the personal income taxation system, enhance the efficiency of tax administration, and incorporate advanced elements of international experience into national tax practice.

Keywords: personal income tax, taxation mechanism, tax administration, tax policy, progressive taxation, proportional taxation, tax incentives, international experience, comparative analysis, tax system, fiscal policy.

Аннотация: В данной статье исследованы теоретико-методологические основы механизма налогообложения доходов физических лиц, его экономическая сущность и роль в современной налоговой системе. В рамках исследования проанализированы действующий механизм налогообложения доходов физических лиц в Республике Узбекистан, порядок исчисления и уплаты налога, система налоговых льгот, а также практика налогового администрирования. Кроме того, на основе сравнительного анализа изучены особенности систем налогообложения доходов физических лиц в США, Германии, Российской Федерации и ряде стран Азии. По результатам исследования дана оценка эффективности прогрессивной и пропорциональной моделей налогообложения, применяемых в различных странах, а также механизмов перераспределения доходов и действующих налоговых ставок. На основе проведенного анализа разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по совершенствованию системы налогообложения доходов физических лиц, повышению эффективности налогового администрирования и внедрению передовых элементов международного опыта в национальную налоговую практику.

Ключевые слова: налог на доходы физических лиц, механизм налогообложения, налоговое администрирование, налоговая политика, прогрессивное налогообложение, пропорциональное налогообложение, налоговые льготы, международный опыт, сравнительный анализ, налоговая система, фискальная политика.



KIRISH

Davlatning fiskal siyosatini samarali amalga oshirishda soliqlar muhim iqtisodiy instrumentlardan biri hisoblanadi. Soliq tizimida jismoniy shaxslar daromad solig'i nafaqat davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning muhim manbai, balki aholi daromadlarini qayta taqsimlash, ijtimoiy adolatni ta'minlash hamda iqtisodiy tengsizlik darajasini pasaytirishning samarali vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu bois jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish mexanizmining nazariy asoslarini tadqiq etish, uning amaliy samaradorligini baholash va takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida kechayotgan globallashuv jarayonlari, xalqaro kapital va mehnat migratsiyasining kengayishi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi hamda daromad manbalarining diversifikatsiyalashuvi jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimiga yangi talablarni qo'ymoqda. Mazkur omillar soliqqa tortish bazasini aniqlash, soliq yukining adolatli taqsimlanishini ta'minlash, soliqlardan bo'yin tovlash holatlarining oldini olish va soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirish bilan bog'liq masalalarning ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda shakllangan soliqqa tortish amaliyotini o'rganish hamda ularning ilg'or tajribalarini milliy soliq tizimiga moslashtirish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda soliq tizimini modernizatsiya qilish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish va soliq yukini optimallashtirishga qaratilgan keng ko'lamli institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, soliq qonunchiligini liberallashtirish, elektron soliq xizmatlarini keng joriy etish, soliq hisobotlarini soddalashtirish hamda soliq to'lovchilar uchun qulay biznes muhitini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlari va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari sharoitida mazkur tizimni yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish mexanizmi va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri masalalari xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotlarda daromad solig'ining fiskal va tartibga soluvchi funksiyalari, soliq stavkalarining iqtisodiy faollikka ta'siri, daromadlarni qayta taqsimlashdagi roli hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirish masalalari alohida o'rin egallaydi.

Soliqqa tortish nazariyasining ilmiy asoslari klassik iqtisodiy maktab vakili Adam Smit tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning soliqqa tortishning adolatlilik, aniqlik, qulaylik va tejamkorlik tamoyillari bugungi kunda ham zamonaviy soliq tizimlarining nazariy poydevori hisoblanadi. Mazkur tamoyillar jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimini tashkil etishda muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.¹

Xorijiy olimlardan J. Stiglitz soliqlarni iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning muhim vositasi sifatida baholab, daromad solig'ining progressiv shakli ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish hamda daromadlarni qayta taqsimlashda samarali mexanizm ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, samarali soliq tizimi fiskal maqsadlar bilan bir qatorda iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashi lozim.²

A. Atkinson va T. Piketty tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda daromadlar tengsizligining ortib borishi sharoitida progressiv daromad solig'ining ahamiyati asoslab berilgan. Ularning ilmiy izlanishlarida yuqori daromadli qatlamlarga nisbatan differensial soliq stavkalarini qo'llash ijtimoiy tabaqalanish darajasini pasaytirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi.³

R. Musgrave davlat moliyasi nazariyasi doirasida daromad soliqlarining resurslarni qayta taqsimlashdagi rolini chuqur tahlil qilgan. Olim soliqqa tortish tizimi nafaqat budjet daromadlarini shakllantirishi, balki jamiyatdagi iqtisodiy tengsizlikni yumshatishga ham xizmat qilishi zarurligini qayd etadi.⁴

Rossiyalik iqtisodchi olimlar D.G. Chernik va I.A. Mayburovlarning ilmiy ishlarida jismoniy shaxslar daromad solig'ining fiskal samaradorligi, soliq bazasini kengaytirish hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Ular soliq nazoratini raqamlashtirish va elektron xizmatlarni rivojlantirish soliq tushumlari barqarorligini ta'minlashda muhim omil ekanligini ta'kidlaydilar.

O'zbekistonlik olimlardan Q. Yahyoev, T. Malikov, A. Vahobov, D. Toshmurodova, B. Xodiyev va boshqa tadqiqotchilar tomonidan soliq tizimini takomillashtirish, daromad soliqlarining iqtisodiyotga ta'siri hamda soliq siyosatini modernizatsiya qilish masalalari keng o'rganilgan. Xususan, T. Malikov o'z tadqiqotlarida soliqlarning iqtisodiy mohiyati va fiskal vazifalarini tahlil qilib, soliq siyosati iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish bilan birga budjet

1 Smith, A. (1776). *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. London: W. Strahan and T. Cadell.

2 Stiglitz, J. E. (2000). *Economics of the Public Sector* (3rd ed.). New York: W.W. Norton & Company.

3 Atkinson, A. B. (2015). *Inequality: What Can Be Done?* Cambridge, MA: Harvard University Press.

4 Musgrave, R. A., & Musgrave, P. B. (1989). *Public Finance in Theory and Practice* (5th ed.). New York: McGraw-Hill.



barqarorligini ta'minlashga xizmat qilishi lozimligini asoslaydi. Q. Yahyoev esa soliqqa tortish tizimining nazariy va amaliy jihatlarini yoritib, soliq mexanizmlarining samaradorligi soliq ma'murchiligi sifati bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi.⁵

Olimlarning ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish mexanizmining nazariy va amaliy jihatlarini yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, O'zbekiston Respublikasida amaldagi tizimni rivojlangan davlatlar tajribasi bilan qiyosiy baholash hamda xalqaro amaliyotning ilg'or elementlarini milliy soliq tizimiga moslashtirish masalalari qo'shimcha ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy zarurati va dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani shakllantirishda daromad solig'i bo'yicha qiyosiy tahlil metodikasidan foydalanilgan bo'lib, xorijiy mamlakatlarning soliq tizimi bilan taqqoslab o'rganilgan. Qolaversa, tahlil va sintez usuli, qiyosiy tahlil usuli, iqtisodiy-statistik usul, mantiqiy umumlashtirish usuli, ilmiy adabiyotlarni o'rganish usuli metodlariga tayanilgan holda tadqiqot olib borilgan va yakuni bo'yicha xulosa hamda takliflar shakllantirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Globalashuv jarayonida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 381-moddasi 1-qismiga muvofiq jismoniy shaxsning daromadlariga 12 foizlik soliq stavkasi bo'yicha soliq solinadi. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksining 393-moddasi 1-qismiga asosan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslarning deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlariga quyidagilar kiradi:

1. mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
2. mulkiy daromadlar;
3. moddiy naf tarzidagi daromadlar;
4. boshqa daromadlar.

Boshqa hollarda daromadlarni soliqqa tortish amaldagi qonunchilik talablariga zid hisoblanadi.⁶

Yuqoridagi ma'lumotlarga muvofiq, daromad solig'ini to'lash tartibi daromad manбайдan yoki daromadlar to'g'risidagi deklaratsiya asosida amalga oshiriladi. Deklaratsiya taqdim etishdan maqsad daromad oladigan jismoniy shaxslar qo'shimcha ish joyiga ega bo'lsa, mulkni ijaraga berish, mol-mulkni sotish, O'zbekiston hududidan tashqarida olingan daromadlar evaziga soliq davrining 1-aprelidan kechiktirmagan tartibda o'zi istiqomat qilib turgan soliq inspeksiyasiga taqdim etishi so'raladi.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimi so'nggi yillarda bosqichma-bosqich takomillashtirilib kelinmoqda. Xususan, 2014–2018-yillarda jismoniy shaxslar daromad solig'i progressiv stavkalar asosida undirilgan bo'lsa, 2019-yildan boshlab yagona 12 foizlik stavka joriy etildi. Mazkur o'zgarish soliq ma'murchiligini soddalashtirish va soliq yukini optimallashtirishga qaratilgan muhim islohotlardan biri bo'ldi.

1-jadval
MHT daromad solig'ining solishtirma stavkalari⁷

Eng kam oylik ish haqining darajasi	2014	2015	2016-2017	2018	2019 yildan boshlab hozirgi kunga qadar
1 barobari	7,5%	0%	0%	0%	12 %*
2 barobari		8,5%	7,5%	7,5%	
3 barobari					
4 barobari					
5 barobari					
6 barobari	16%				
7 barobari					
8 barobari					
9 barobari					
10 barobari	22%	23%	23%	22,5%	
10 barobaridan yuqori					

5 Malikov, T. S. (2020). *Soliqlar va soliqqa tortish*. Toshkent: Iqtisod-Moliya.

6 Yahyoev, Q. A. (2019). *Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: Fan va texnologiyalar.

7 O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. (2025). *Jismoniy shaxslar daromad solig'i bo'yicha statistik va uslubiy ma'lumotlar*. Toshkent.



2014-2018-yillarda O'zbekistonda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish progressiv stavkalar asosida amalga oshirilgan. Daromad miqdori oshgani sari soliq stavkalari ham ortib borgan. Jumladan, 2014-yilda eng yuqori daromadlarga nisbatan 22 foizlik stavka qo'llanilgan bo'lsa, 2015–2017-yillarda ushbu ko'rsatkich 23 foizgacha yetgan. 2019-yildan boshlab esa progressiv tizim o'rniga yagona stavka joriy etilib, barcha daromadlar uchun yagona 12 foizlik stavka joriy etildi. Natijada soliqlarni hisoblash mexanizmi soddalashtirildi va ma'muriy xarajatlar qisqartirildi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini rivojlangan mamlakatlar misolida tahlil qiladigan bo'lsak.

Rivojlangan davlatlar tajribasida esa progressiv soliqqa tortish mexanizmi hanuzgacha keng qo'llanilmoqda. Bunga yaqqol misol sifatida AQSh soliq tizimini keltirish mumkin.

2-jadval

Amerika Qo'shma Shtatlarida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari (2026-yil)⁸

Soliq stavkasi	Uylanmagan	Turmush qurganlar birgalikda ariza berganlar uchun	Turmush qurganlar alohida ariza berganlar uchun	Oila boshlig'i
10%	\$0 – \$12,400	\$0 – \$24,800	\$0 – \$12,400	\$0 – \$17,000
12%	\$12,401 – \$50,400	\$24,801 – \$100,800	\$12,401 – \$50,400	\$17,001 – \$64,850
22%	\$50,401 – \$105,700	\$100,801 – \$211,400	\$50,401 – \$105,700	\$64,851 – \$103,350
24%	\$105,701 – \$201,775	\$211,401 – \$403,550	\$105,701 – \$201,775	\$103,351 – \$197,300
32%	\$201,776 – \$256,225	\$403,551 – \$512,450	\$201,776 – \$256,225	\$197,301 – \$250,500
35%	\$256,226 – \$640,600	\$512,451 – \$768,700	\$256,226 – \$384,350	\$250,501 – \$626,350
37%	\$640,600 dan yuqori	\$768,700 dan yuqori	\$384,350 dan yuqori	\$626,350 dan yuqori

AQShda jismoniy shaxslar daromad solig'i 10 foizdan 37 foizgacha bo'lgan progressiv stavkalar asosida undiriladi. Soliq stavkalarining daromad miqdoriga qarab tabaqalashtirilishi davlat budjetining daromad bazasini mustahkamlash bilan birga daromadlar tengsizligini yumshatishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, soliq stavkalarini belgilashda soliq to'lovchining oilaviy holati ham inobatga olinishi tizimning ijtimoiy yo'naltirilganligini ko'rsatadi. AQSh tajribasida yuqori daromad egalari yuqoriroq stavkalar bo'yicha, soliq to'lovchilar esa daromadi hajmi bilan birgalikda oilaviy holati va lavozimiga qarab soliqqa tortilar ekan. Thomas Piketty va Emmanuel Saez tadqiqotlariga ko'ra, AQSh federal soliq tizimining progressivligi 1960-yillardan buyon pasayib borgan bo'lsa ham, u hali ham davlat budjetini shakllantirish va daromadlarni qayta taqsimlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. AQShda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish mexanizmi ancha murakkab institutsional tuzilishga ega bo'lib, federal, shtat va mahalliy darajadagi soliqlarning uyg'unlashuvi asosida shakllangan. Soliq to'lovchilar tomonidan yillik soliq deklaratsiyasining taqdim etilishi majburiy hisoblanadi. Daromad solig'i stavkalarining progressiv shaklda belgilanishi yuqori daromadli qatlamlardan ko'proq fiskal resurslarni jalb qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, standart chegirmalar, oilaviy imtiyozlar, ta'lim va tibbiyot xarajatlari bo'yicha soliq kreditlarining qo'llanilishi soliqqa tortish mexanizmining ijtimoiy yo'naltirilganligini namoyon etadi. Mazkur yondashuv davlat budjeti daromadlarini shakllantirish bilan bir qatorda aholi daromadlari o'rtasidagi tafovutlarni yumshatishga xizmat qiladi.

3-jadval

Germaniyada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari (2026-yil)⁹

Soliq stavkasi	Yillik soliqqa tortiladigan daromad
0%	0 € - 12 348 €
14% - 42%	12 349 € - 69 878 €
42%	69 879 € - 277 825 €
45%	277 826 € va undan yuqori

8 Internal Revenue Service (IRS). (2025). *Revenue Procedure 2025-32: Tax year 2026 inflation adjustments*. Washington, DC: U.S. Department of the Treasury.

9 Federal Ministry of Finance of Germany. (2025). *Taxation and Income Tax Rates in Germany*. Berlin: Bundesministerium der Finanzen.



Germaniya davlatining amaldagi soliq tizimida daromad solig'i progressiv, ya'ni o'sib boruvchi shkalalarda hisoblanadi. Jismoniy shaxsning daromadiga soliq solish progressivdir. Ya'ni, daromad qancha ko'p bo'lsa, to'lanadigan soliq stavkasi shunchalik yuqori bo'ladi. Bu esa kam daromadli aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. 2026-yilda Germaniyada jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalari 14–45 foizni tashkil qiladi. Turmush qurmaganlar 277 826 yevrodan yuqori daromad solig'i bo'yicha 45 foiz miqdorida to'laydilar. Germaniya tajribasida daromad solig'ini undirish mexanizmi ijtimoiy bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Mamlakatda soliqqa tortilmaydigan minimum daromad miqdorining mavjudligi fuqarolarning minimal iste'mol ehtiyojlarini soliq yukidan himoya qilishga qaratilgan. Shuningdek, turmush o'rtoqlarning birgalikda deklaratsiya topshirish imkoniyati oilalarning umumiy soliq yukini kamaytirishga xizmat qiladi. Progressiv stavkalarining 45 foizgacha yetishi esa davlatning daromadlarni qayta taqsimlash siyosatini faol amalga oshirayotganligini ko'rsatadi. Natijada daromad solig'i fiskal instrument bo'lish bilan birga ijtimoiy himoya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida ham namoyon bo'ladi.

4-jadval

Yaponiyada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari va ko'rsatkichlari (2026-yil)¹⁰

Yillik soliqqa tortiladigan daromad (JPY)	Soliq stavkasi	Band
0 – 1 950 000 ¥	5%	Eng past stavka
1 950 001 – 3 299 000 ¥	10%	Past-o'rta daromad
3 300 000 – 6 949 000 ¥	20%	O'rta daromad
6 950 000 – 8 999 000 ¥	23%	O'rta-yuqori daromad
9 000 000 – 17 999 000 ¥	33%	Yuqori daromad
18 000 000 – 39 999 000 ¥	40%	Juda yuqori daromad
40 000 000 ¥ dan yuqori	45%	Maksimal stavka

Yaponiya tajribasida jismoniy shaxslar daromad solig'i yetti pog'onali progressiv shkala asosida undiriladi. Soliq stavkalarining 5 foizdan 45 foizgacha o'zgarishi daromadlarni qayta taqsimlashning samarali mexanizmini shakllantiradi. Bundan tashqari, mahalliy soliqlar va qo'shimcha yig'imlar davlat moliyaviy resurslarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Yaponiyada jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish mexanizmi markaziy hukumat va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasidagi fiskal munosabatlar bilan uzviy bog'liqdir. Daromad solig'i stavkalari progressiv shkala asosida belgilangan bo'lib, daromad miqdorining ortishi bilan soliq yukining ham oshib borishi kuzatiladi. Bundan tashqari, milliy daromad solig'i bilan bir qatorda mahalliy aholi soliqlarining undirilishi hududiy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi. Oilaviy holat, boqimandalar soni, ijtimoiy sug'urta badallari va boshqa omillarni hisobga oluvchi soliq chegirmalari tizimi esa soliq yukining adolatli taqsimlanishiga imkon yaratadi.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish mexanizmini xalqaro miqyosda qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, turli mamlakatlarda mazkur soliqning fiskal va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda o'ziga xos yondashuvlar shakllangan. Soliq stavkalari, soliqqa tortish bazasi, deklaratsiyalash tizimi, soliq imtiyozlari hamda daromadlarni qayta taqsimlash mexanizmlaridagi farqlar mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, ijtimoiy siyosati va davlat moliyasi modeliga bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar daromad solig'ini undirish mexanizmi asosan daromad manbaida soliqni ushlab qolish tamoyiliga asoslangan. Bunda ish beruvchi soliq agenti sifatida faoliyat yuritib, xodimga hisoblangan daromaddan tegishli soliq summasini ushlab qoladi hamda uni budjetga o'tkazadi. Mazkur mexanizm soliq ma'murchiligini soddalashtirish, soliq tushumlarining barqarorligini ta'minlash va soliq nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, amaldagi proporsional soliqqa tortish modeli barcha daromad guruhlariga nisbatan yagona stavkaning qo'llanilishi bilan tavsiflanadi.

AQSh, Germaniya va Yaponiyada jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish mexanizmi nafaqat budjet daromadlarini shakllantirishga, balki daromadlarni qayta taqsimlash, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga ham qaratilgan. O'zbekistonda esa mazkur mexanizm asosan fiskal samaradorlik va ma'muriy soddalik tamoyillariga asoslangan holda faoliyat yuritmoqda.

¹⁰ National Tax Agency of Japan. (2025). *Income Tax Guide for Foreigners and Residents*. Tokyo: NTA.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Shuni aytishimiz mumkinki, jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, ijtimoiy siyosati hamda fiskal maqsadlariga mos ravishda shakllanadi. AQSh, Germaniya va Yaponiya tajribasida progressiv soliqqa tortish modeli qo'llanilishi orqali yuqori daromadli qatlamlardan budjetga ko'proq mablag'lar jalb etilib, daromadlarni qayta taqsimlash hamda ijtimoiy adolatni ta'minlashga erishilmoqda. Mazkur mamlakatlarda soliqqa tortilmaydigan minimum daromad, oilaviy imtiyozlar va maqsadli soliq chegirmalari tizimining mavjudligi soliq yukining aholi qatlamlari o'rtasida adolatli taqsimlanishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida amalda qo'llanilayotgan 12 foizlik proporsional soliq stavkasi soliq ma'murchiligini soddalashtirish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hamda soliq tushumlarining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etayotganligi aniqlandi. Shu bilan birga, daromadlar differensiallashuvi ortib borayotgan sharoitda yagona stavkaning qo'llanilishi daromadlarni qayta taqsimlash imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

O'zbekistonda jismoniy shaxslar daromad solig'ini to'liq progressiv tizimga o'tkazishdan ko'ra, xalqaro tajribada keng qo'llanilayotgan aralash, ya'ni mo'tadil progressiv modelni bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda kam va o'rta daromadli aholi qatlamlari uchun amaldagi stavkani saqlab qolish, yuqori daromad oluvchi jismoniy shaxslar uchun esa qo'shimcha progressiv stavkalarni qo'llash orqali fiskal samaradorlik va ijtimoiy adolat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash mumkin. Bundan tashqari, soliqqa tortilmaydigan minimum daromad miqdorini joriy etish, ta'lim, sog'liqni saqlash va ipoteka xarajatlari bo'yicha soliq chegirmalarini kengaytirish hamda soliq ma'murchiligini yanada raqamlashtirish jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada davlat budjeti daromadlarining barqarorligi ta'minlanishi bilan bir qatorda, aholi farovonligini oshirish va ijtimoiy tenglikni mustahkamlash imkoniyatlari kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. — London: W. Strahan and T. Cadell, 1776.
2. Stiglitz J. E. Economics of the Public Sector. 3rd ed. — New York: W. W. Norton & Company, 2000.
3. Atkinson A. B. Inequality: What Can Be Done? — Cambridge, MA: Harvard University Press, 2015.
4. Musgrave R. A., Musgrave P. B. Public Finance in Theory and Practice. 5th ed. — New York: McGraw-Hill, 1989.
5. Malikov T. S. Soliqlar va soliqqa tortish. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.
6. Yahyoev Q. A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019.
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. Jismoniy shaxslar daromad solig'i bo'yicha statistik va uslubiy ma'lumotlar. — Toshkent, 2025.
8. Internal Revenue Service (IRS). Revenue Procedure 2025-32: Tax Year 2026 Inflation Adjustments. — Washington, DC: U.S. Department of the Treasury, 2025.
9. Federal Ministry of Finance of Germany. Taxation and Income Tax Rates in Germany. — Berlin: Bundesministerium der Finanzen, 2025.
10. National Tax Agency of Japan. Income Tax Guide for Foreigners and Residents. — Tokyo: National Tax Agency, 2025.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>